

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash  
2025 yil 23-avgustdagi  
180-sonli buyrug'iga  
7-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**AKADEMIK Yo.X. TO'RAQULOV NOMIDAGI RESPUBLIKA  
IXTISOSLASHTIRILGAN ENDOKRINOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT  
MARKAZI**

**BOLALAR VA O'SMIRLARDA 1-TUR QANDLI DIABET  
NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR**

**TOSHKENT – 2025**



"Tasdiqlayman"

Emik Yo.X. To'raqulov

RIEIAM direktori

A.V. Alimov

2025 yil

## **BOLALAR VA O'SMIRLARDA 1-TUR QANDLI DIABET NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR**

Toshkent – 2025 y



## 1. Kirish qismi

O'zbekiston Respublikasida endokrin kasalliklarning ko'payishi va ularning "yosharishi" muntazam ravishda kuzatilmoqda. Ma'lumki, qandli diabet va endokrin tizimining boshqa kasalliklari surunkali xususiyatga ega bo'lib, og'ir asoratlarga olib keladi. Endokrin kasalliklar asoratlarini erta aniqlash, bemorlarni to'g'ri tashxislash va davolash, shuningdek, asoratlarning oldini olish endokrin kasalliklar asoratlari tufayli

### XKT-10 kodi:

E 10.2	Buyrak shikastlanishi bilan insulin-bog'liq qandli diabet
E 10.3	Ko'z shikastlanishi bilan kechuvchi insulinga bog'liq qandli diabet
E 10.4	Nevrologik asoratli insulinga bog'liq qandli diabet
E 10.5	Periferik qon aylanishi buzilgan insulinga bog'liq qandli diabet
E 10.6	Insulinga bog'liq qandli diabetning boshqa aniqlangan asoratlari bilan
E 10.7	Ko'p asoratli insulinga bog'liq qandli diabet
E 10.8	Aniqlanmagan asoratli insulinga bog'liq qandli diabet
E 10.9	Asoratlarsiz insulinga bog'liq qandli diabet

### XKT-11 kodi:

5A10	Qandli diabet 1 tur
------	---------------------

Ushbu klinik protokol 2025-yilda ishlab chiqildi va har 5 yilda yoki dalillarga asoslangan yangi ma'lumotlar paydo bo'lganda qayta ko'rib chiqiladi.

Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqishga mas'ul muassasa: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining akademik Yo.X.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

#### Milliy klinik protokolni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhning tarkibi:

Alimov A.V.,

t.f.d, Akademik Yo.X. To'raqulov  
nomidagi RIEIATM direktori

Raximova G.N.,

t.f.d., professor  
Tibbiyot xodimlarining kasbiy  
malakasini rivojlantirish markazi,  
Endokrinologiya kafedra mudiri

Faxrutdinova S.S.,

t.f.d, Akademik Yo.X. To'raqulov  
nomidagi RIEIATM xududlar bo'yicha  
direktor muovini. SSVning bosh  
endokrinologi.

Xalimova Z.Yu.,

t.f.n., professor Akademik Yo.X.  
To'raqulov nomidagi RIEIATM, ilmiy  
ishlar bo'yicha direktor muovini

#### Авторлар руйихати:

1	Sultanova Sh.T.	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, SSVning bosh bolalar endokrinologi
2	Alimova N.U., t.f.n.,k.i.x.	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM. Bolalar endokriologiya ilmiy laboratoriyasi mudiri.
3	Gilyazetdinov K.N., t.f.n.	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM., bolalar endokrinologi
4	Sadiqova A.S., t.f.n.,k.i.x	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM., bolalar endokrinologi
5	Alieva A.V t.f.d	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi akademik Yo.X.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining shoshilinch holatlar va endokrinologiyada IT ilmiy bo'limi mudiri.
6	Shariqsiyeva., t.f.n.	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, Bolalar endokrinologiyasi bo'limi mudiri
7	Ibragimova M.R	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM., bolalar endokrinologi
8	Suleymanova F.N.	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM., bolalar endokrinologi
9	Zufarova D.S	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM., bolalar endokrinologi
10	.Siddikov A.A.	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM., bolalar endokrinologi
11	Isamuxamedova I.S.	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM., bolalar endokrinologi
12	Aripova M.A.	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM., bolalar endokrinologi
13	Tillayeva D.	Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM., bolalar endokrinologi

**Тақризчилар:**

Nasirova X.K. --- t.f.d., ToshPTI Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi kafedrası mudiri

Shamansurova Z.M.--- t.f.n., Markaziy Osiyo universiteti Tibbiyot maktabining dotsenti

Milliy klinik bayonnoma akademik Yo.X.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Ilmiy kengashi tomonidan 2025-yil \_\_ \_\_\_\_\_ kuni ko'rib chiqilib, \_\_ - sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan.

Mazkur klinik protokol va standartlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazir o'rinbosari Basitxanova E I., Tibbiy sug'urta boshqarmasi boshlig'i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi boshlig'i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko'magi asosida ishlab chiqilgan.

Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisi bayonnomasidan koʻchirma (sana, raqam).

**Qisqartmalar:**

<b>GADA</b>	Glutamic Acid Decarboxylase Autoantibodies (глутаматдекарбоксилазага qarshi autoantitanalar)
<b>IAA</b>	Insulin Autoantibodies (insulinga qarshi autoantikorlar)
<b>IA-2</b>	Insulinoma-Associated-2 Autoantibodies (tirozinfosfatazaga qarshi autoantitanalar)
<b>ICA</b>	Islet Cell Cytoplasmic Autoantibodies (orolcha hujayralari tuzilmalariga qarshi autoantitanalar)
<b>HbA1c</b>	glikirlangan gemoglobin
<b>HLA</b>	Human Leukocyte Antigens (inson leykotsitar antigeni)
<b>ZnT8A</b>	Zinc Transporter 8 (cink tashuvchisi 8 ga qarshi autoantitanalar)
<b>AG</b>	arterial gipertenziya
<b>AD</b>	Arterial qon bosim
<b>АПФ</b>	angiotenzinni oʻzgartiruvchi ferment
<b>AT</b>	antitanacala
<b>ATX</b>	anatom-terapevt-kimyogar
<b>BPC</b>	yurak ritmi oʻzgaruvchanligi
<b>ГК</b>	qondagi glyukoza
<b>ДЗН</b>	koʻruv nervi diski
<b>ДМО</b>	diabetik makula shishi
<b>ДКА</b>	Diabetik ketoatsidoz
<b>ДНК</b>	dezoksiribonuklein kislota
<b>ДН</b>	Diabetik nefropatiya
<b>ДПП</b>	diabetik periferik polineyropatiya
<b>ДР</b>	diabetik retinopatiya
<b>ТВИ</b>	tana vazni indeksi
<b>УТЭИ</b>	Uzoq taʼsir etuvchi insulin (uzoq muddatli taʼsir etuvchi insulinlar va ularning inyeksiya uchun moʻljallangan analoglari)
<b>ҚТЭИ</b>	Qisqa taʼsirli insulin (inyeksiya uchun moʻljallangan qisqa taʼsirli insulinlar va ularning analoglari)

<b>УТЭИ</b>	Ultraqisqa ta'sirli insulin (inyeksiya uchun mo'ljallangan qisqa ta'sirli insulinlar va ularning analoglari) avtonom neyropatiyaning kardiovaskulyar shakli
<b>ЛПВП</b>	yuqori zichlikdagi lipoproteinlar
<b>ЛПНП</b>	past zichlikdagi lipoproteinlar
<b>КМИН</b>	ko'p martali insulin inyeksiyalari
<b>МКБ 10</b>	kasalliklarning 10-qayta ko'rib chiqilgan xalqaro tasnifi
<b>ХПН</b>	xalqaro patentlanmagan nomi
<b>УГМ</b>	uzluksiz glyukoza monitoringi
<b>ИТОУЮ</b>	insulinni teri ostiga uzluksiz yuborish
<b>НПХ</b>	Xagedorn neytral protamini
<b>НҚД</b>	Neonatal qandli diabet
<b>ГТС</b>	Glyukozaga tolerantlik sinovi
<b>рСКФ</b>	koptokchalar filtratsiyasining hisobiy tezligi
<b>ҚД</b>	qandli diabet
<b>ҚД 1</b>	qandli diabet 1 tur
<b>ҚД 2</b>	qandli diabet 2-tur
<b>КФТ</b>	koptokchalar filtratsiyasi tezligi
<b>ДИД</b>	dalillarning ishonchlilik darajasi
<b>ТИД</b>	tavsiyalarning ishonchlilik darajasi
<b>ГФК</b>	glyukozani flesh-kuzatuv
<b>ЧСС</b>	yurak urishi tezligi
<b>СБЕ</b>	surunkali buyrak yetishmovchiligi
<b>НБ</b>	non birligi
<b>ЭКГ</b>	elektrokardiografiya

**Protokol foydalanuvchilari:**

1. Bolalar-endokrinolog
2. Endokrinolog
3. Anesteziolog-reanimatolog
4. Kardiolog;
5. Vrachi obshey praktiki;

6. Vrachi skoroy pomoshi
7. Terapevtlar
8. Sog'liqni saqlash tashkilotchilari;
9. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari, klinik ordinatorlari, magistrantlari, aspirantlari va o'qituvchilari;
10. 1-turdagi qandli diabet bilan kasallangan bemorlar, ularning oila a'zolari hamda parvarishlovchi shaxslar.

**Bemor toifalari: 18 yoshgacha bo'lgan QD 1 tur bilan kasallangan bemorlar**

**Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi  
(tashxislash aralashuvlari uchun)**

Dalillarning isbotlanganlik darajasi	
1	Referents usul yordamida nazorat ostida o'tkazilgan tadqiqotlarning tizimli sharhlari yoki meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli sharhi
2	Referents usul nazorati bilan o'tkazilgan ayrim tadqiqotlar yoki ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi bundan mustasno
3	Referents usul yordamida izchil nazoratsiz yoki o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan referents usul yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar yoki randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi
5	Muolajaning ta'sir mexanizmi asoslari yoki ekspertlar xulosasi

**Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi  
(profilaktika, davolash va reabilitatsion tadbirlar uchun)**

Dalillarning isbotlanganlik darajasi	
1	Meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi
2	Ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi bundan mustasno
3	Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat yoki holatlar seriyasi tavsifi, "holat-nazorat" tadqiqoti
5	Muolajaning ta'sir mexanizmi asoslari (klinika oldi tadqiqotlar) yoki ekspertlar xulosasi

**Tavsiyalarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi**

Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi	
A	Kuchli tavsiya (barcha ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o'rinni egallaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va qiziqtirayotgan natijalar bo'yicha xulosalari kelishilgan)
B	Shartli tavsiya (ayrim ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o'rinni egallaydi, ayrim tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va/yoki qiziqtirayotgan natijalar bo'yicha xulosalari kelishilmagan)
C	Kuchsiz tavsiya (sifatli dalillar keltirilmagan, ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari, natijalar) muhim o'rinni egallamaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati past va qiziqtirayotgan natijalar bo'yicha xulosalari kelishilmagan

## 2. Asosiy qism

### 2.1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida endokrin kasalliklarning ko'payishi va ularning "yosharishi" muntazam ravishda kuzatilmoqda. Ma'lumki, qandli diabet va endokrin tizimining boshqa kasalliklari surunkali xususiyatga ega bo'lib, og'ir asoratlarga olib keladi. Endokrin kasalliklar asoratlarini erta aniqlash, bemorlarni to'g'ri tashxislash va davolash, shuningdek, asoratlarning oldini olish endokrin kasalliklar asoratlari tufayli yuzaga keladigan nogironlikni kamaytirishga va bemorlarning sifatli umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qiladi.

### 2.2. Ta'rif

Qandli diabet (QD) - insulin sekretsiyasi yoki ta'sirining buzilishi, yoxud bu buzilishlarning birgalikda kuzatilishi natijasida yuzaga keladigan surunkali giperglikemiya bilan tavsiflanadigan murakkab metabolik kasalliklarning katta guruhi hisoblanadi. Murakkab gormonal jarayonlar tarkibida insulin sekretsiyasining buzilishi va/yoki to'qimalarning insulinga javobining pasayishi insulinning nishon to'qimalarga ta'sirining izdan chiqishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida uglevod, yog' va oqsil almashinuvining buzilishiga sabab bo'ladi. Bir bemorning o'zida bir vaqtning o'zida ham insulin sekretsiyasining, ham uning ta'sirining buzilishi kuzatilishi mumkin.

1-tur QD - oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqaruvchi beta-hujayralarining autoimmun destruksiyasi natijasida yuzaga keladigan kasallik bo'lib, keyinchalik mutlaq insulin yetishmovchiligi rivojlanishiga olib keladi.

[https://cdn.ymaws.com/www.ispad.org/resource/resmgr/consensus\\_guidelines\\_2018\\_/guidelines2022/2nd/Ch. 1 - Definition Epidemiol.pdf](https://cdn.ymaws.com/www.ispad.org/resource/resmgr/consensus_guidelines_2018_/guidelines2022/2nd/Ch. 1 - Definition Epidemiol.pdf)

### 2.3. Tasniflash

[https://cdn.ymaws.com/www.ispad.org/resource/resmgr/consensus\\_guidelines\\_2018\\_/guidelines2022/2nd/Ch. 1 - Definition Epidemiol.pdf](https://cdn.ymaws.com/www.ispad.org/resource/resmgr/consensus_guidelines_2018_/guidelines2022/2nd/Ch. 1 - Definition Epidemiol.pdf)

№	<b>QD 1 tur</b>
П/П	

1.	<p style="text-align: center;"><b>QD 1 tur</b></p> <p><b>A. Autoimmun QD1</b> quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: beta-hujayralarning halok bo‘lishi, beta-hujayralarga qarshi autoantitanalar mavjudligi, mutlaq insulin tanqisligi, insulinga to‘liq qaramlik, ketoatsidozga moyillik bilan og‘ir kechishi, asosiy to‘qima mosligi kompleksi (bundan keyin - HLA) genlari bilan bog‘liqligi;</p> <p><b>B. Idiopatik QD 1</b> ham beta-hujayralarning halok bo‘lishi va ketoatsidozga moyillik bilan kechadi, ammo autoimmun jarayon belgilari (maxsus autoantitanalar va HLA-tizimi bilan bog‘liqlik) kuzatilmaydi.</p>
2.	<p style="text-align: center;"><b>QD 2 tur</b></p> <p>Insulin sekretsiyasi va ta’siri buzilishi bilan kechuvchi nisbiy insulin yetishmovchiligi bilan tavsiflanadi: nisbiy insulin yetishmovchiligi bilan kuzatiladigan insulin qarshiligining ustunligidan tortib asosan sekretor nuqsonning insulin rezistentligi bilan birga yoki alohida namoyon bo‘lishigacha.</p>
3.	<p style="text-align: center;"><b>QDning boshqa o‘ziga xos turlari</b></p> <p>Qandli diabetning bir qator nozologik jihatdan mustaqil shakllarini o‘z ichiga oladi (asosan monogen irsiylanish turiga ega bo‘lgan irsiy sindromlar), ular alohida kichik turlarga ajratilgan:</p> <p><b>A. beta-hujayralar faoliyatining genetik nuqsonlari:</b>  xromosoma 12, HNF1A (MODY3);  xromosoma 7, GCK (MODY2);  xromosoma 20, HNF4A (MODY1);  xromosoma 13, insulinoviy promotorniy faktor – IPF-1 (MODY4);  xromosoma 17, HNF1B (MODY5);  xromosoma 2, NEUROD1 (MODY6);  mutatsiya mitoxondrialnoy DNK;  xromosoma 6, KCNJ11 (Kir6.2), ABCC8 (Sur 1);  insulin sintezi monogen nuqsonlari sabab bo‘lgan ba’zi boshqa turlar;</p> <p><b>B. Mmitoxondrial diabet;</b></p> <p><b>C. Insulinning ta’sir ko‘rsatishidagi genetik nuqsonlar:</b>  A turdagi insulinga rezistentlik;  leprechaunizm (Donoxyu sindromi);  Rabson-Mendelxoll sindromi;lipoatrofik diabet;  insulin retseptori geni mutatsiyasi natijasida rivojlanadigan qandli diabetning boshqa ayrim shakllari;  klinik jihatdan o‘rtacha giperglikemiya va giperinsulinemiyadan to yaqqol qandli diabetgacha bo‘lgan uglevod almashinuvining buzilishlari bilan namoyon bo‘ladi;  Donoxyu sindromi va Rabson-Mendelxoll sindromi bolalar davrida paydo bo‘ladi va insulinga nisbatan keskin ifodalangan rezistentlik bilan namoyon bo‘ladi; Rojers sindromi</p> <p><b>D. Oshqozon osti bezining ekzokrin qismi kasalliklari:</b>  pankreatit;  jarohat, pankreatektomiya; oshqozon osti bezi o‘smalari;  kistoz fibroz (mukovissidoz); gemoxromatoz;  fibro-kalkulyoz pankreatopatiya;</p>

oshqozon osti bezining ekzokrin funksiyasi sezilarli darajada buzilishi bilan bir qatorda, orolcha hujayralarining sekretor funksiyasi yetishmovchiligi ham kuzatiladigan boshqa ayrim nozologik jihatdan farqli kasalliklar;

**E: endokrinopatiyalar:**

akromegaliya;  
Kushing sindromi;  
glyukagonoma;  
feoxromotsitoma;  
gipertireoz;  
somatostatinoma;  
aldosteroma;

kontrinsulyar ta'sir ko'rsatuvchi gormonlarning me'yoridan ortiq ajralishi natijasida kelib chiqadigan ayrim boshqa endokrinopatiyalar oshqozon osti bezi beta-hujayralarining funksional moslashuv zaxiralarini tugatib qo'yishi mumkin.

***F. ba'zi dori vositalari yoki boshqa kimyoviy moddalar ta'sirida kelib chiqadigan qandli diabet:***

vakor;  
nikotinat kislotasi;  
tizimli qo'llanish uchun kortikosteroidlar;  
qalqonsimon bez gormonlari;  
diazoksid;  
beta-adrenoblokatorlar;  
tiazidlar; fenitoin;  
interferon-alfa;  
boshqa dori vositalari;  
ularning ta'sir mexanizmlari turlicha: insulinning periferik ta'siri pasayishi, mavjud insulin rezistentligining kuchayishi;  
bolalarda  $\alpha$ -interferonni qo'llash eng katta ahamiyatga ega bo'lib, uning ta'sirida insulinning yaqqol mutlaq yetishmovchiligi bilan kechadigan autoimmun qandli diabet rivojlanishi mumkin

**G. infeksiyalar:**

Tug'ma qizilcha;  
sitomegalovirus; boshqalar;  
ba'zi virusli infeksiyalar beta-hujayralarning nobud bo'lishiga olib kelib, mutlaq insulin yetishmovchiligini keltirib chiqaradi;  
orolcha apparatining virus bilan to'g'ridan to'g'ri zararlanishi kamdan kam hollarda uchraydi

**H. QDning kamdan kam uchraydigan shakllari:**

rigid odam sindromi (mushak qotib qolishi sindromi, stiff-man sindromi) –

	<p>markaziy asab tizimining autoimmun zararlanishi bo‘lib, u aksial mushaklarning qattiqlashuvi va ularning og‘riqli tirishishi bilan tavsiflanadi; glutamatdekarboksilazaga qarshi antitanalar aniqlanadi va deyarli 50% hollarda qandli diabet rivojlanadi;</p> <p>I va II tipdagi autoimmun poliglandulyar sindrom;</p> <p>insulin retseptorlariga autoantitanalar hosil bo‘lishi bilan kechadigan boshqa kasalliklar - tizimli qizil volchanka, terining pigment-so‘rg‘ichsimon distrofiyasi (acanthosis nigricans); bunda insulinga nisbatan sezilarli darajada qarshilik kuzatilishi mumkin;</p> <p><b>I. Boshqa genetik sindromlar, ba’zan qandli diabet bilan birga kuzatiladigan, chunki qandli diabet ko‘plab genetik sindromlarning tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin, jumladan:</b></p> <p>Volfram sindromi (DIDMOAD);  Daun sindromi;  Shereshevskogo-Terner sindromi;  Klaynfelter sindromi;  Lourensa-Muna-Bidlya sindromi;  Pradera-Villi sindromi;  Fridreyxa ataksiyasi;  Xantigtona xoreyasi;  porfiriya;  miotonik distrofiya;  bolalar yoshida eng ko‘p uchraydigan kasallik Volfram sindromi (DIDMOAD) hisoblanadi.  Rodjersa sindromi</p>
	<p><b>Gestatsion QD (Homilador ayollarning qandli diabeti)</b></p> <p>Homiladorlik paytida aniqlangan uglevod almashinuvining buzilishi bilan bog‘liq har qanday holatlar.</p>

### 3.1. Tashxis mezonlari

[https://cdn.vmaws.com/www.ispad.org/resource/resmgr/consensus\\_guidelines\\_2018\\_/guidelines2022/2nd/Ch. 1 - Definition Epidemiol.pdf](https://cdn.vmaws.com/www.ispad.org/resource/resmgr/consensus_guidelines_2018_/guidelines2022/2nd/Ch. 1 - Definition Epidemiol.pdf)

#### Diabetni tashxis mezonlari

<u>Mezonlar</u>	<u>Kursatkichlar</u>	<u>Izox</u>
<b>Diabet yoki giperglikemik krizning klassik simptomlari</b>	Glyukoza konsentratsiyasi $\geq 11,1$ mmol/l (200 mg/dl)	
Nahorgi plazmadagi glyukoza miqdori	$\geq 7,0$ ммоль/л ( $\geq 126$ мг/дл)	Och qoringa - kamida 8 soat davomida kaloriya iste'mol qilmaslik
Yuklamadan 2 soat keyin glyukoza darajasi	$\geq 11,1$ ммоль/л ( $\geq 200$ мг/дл)	75 g suvda eritilgan glyukoza quruq moddasiga teng bo‘lgan glyukoza yuklamasi bilan og‘iz orqali glyukoza chidamlilik testini o‘tkazish (75 g maksimal tana vazniga 1,75 g)
<b>HbA1c</b>	$\geq 6,5\%$	Sinov Glikogemoglobinni standartlashtirish milliy dasturi (NGSP) va diabetni nazorat qilish va

## Mezonlar

## Kursatkichlar

## Izox

asoratlarini o'rganish (DCCT) tomonidan sertifikatlangan va standartlashtirilgan usulni qo'llagan holda laboratoriyada o'tkazilishi kerak.


### Izohlar:

- glyukozaga tolerantlik sinovi (GTS) o'tkazilganda, natijalarning imkon qadar aniq bo'lishini ta'minlash uchun testni tayyorlash va bajarish bo'yicha barcha ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilish zarur.
- NbA1c testi natijalarining ishonchligini kafolatlash maqsadida, u tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan laboratoriyalarda o'tkazilishi shart.

## QD 1 tur patogenezi

**Qo'zg'atuvchilar  
virusmi?  
mahsulot?**

**Stimullovchi moddalar  
genlar?  
Viruslar?  
Maxsulot?**



### Shikoyatlar va anamnez:

Qandli diabetning 1-turi (QD1) boshlanishida

- Chanqash
- Tez-tez siyish
- Erta yoshdagi bolalarda tungi va/yoki kunduzgi siydik tutolmaslik
- Chaqaloqlarda tana vaznining kamayishi yoki tushunarsiz vazn qo'shilmasligi
- Holsizlik
- Charchoq
- Takrorlanuvchi teri infeksiyalari
- Tashqi jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklari

Ko'pincha virusli infeksiya (parotit, qizamiq, gepatit B, C, sitomegalovirus, koronavirus-19 va boshqalar) sabab bo'ladi. Klinik belgilarning namoyon bo'lishi oshqozon osti bezi  $\beta$ -hujayralarining 90% yo'q bo'lishida, ko'pincha 40 yoshgacha ro'y beradi.

### 3.2 Klinika

#### Namoyon bo'lish darajasi:

Shoshilinch bo'lmagan ko'rinishlar

- Og'ir suvsizlanish

- Diabetik ketoatsidoz (DKA)

Koma holatigacha

### **Diabetik ketoatsidozning (DKA) rivojlanishi**

Yuqoridagi shikoyatlar paydo bo'lganda, DKA bir necha kundan bir necha oygacha rivojlanishi mumkin.

### **DKAning klinik belgilari:**

- Teri va shilliq qatlamlarning quruqligi
- Nafas chiqarishda atseton hidi
- Qusish
- Ong buzilishi (koma holatigacha)

Siyrak, chuqur, shovqinli, kuchaytirilgan nafas chiqarish bilan nafas olish (Kussmaul nafasi)

### **DKA rivojlanish tezligi:**

- **Hayotning dastlabki yillaridagi bolalarda:** Bir necha kundan
- **O'smirlarda:** Bir necha oydan
- **Tashxis qo'yilgandan keyingi kasallik kechishi**

### **Surunkali kechishi:**

Uglevod almashinuvi kompensatsiya davrlari

- Dekompensatsiya fazasi
- Ketoz/DKA belgilari bilan yoki ularsiz

### **Dekompensatsiya sabablari:**

#### **Bemor tomonidan kasallikni nazorat qilishdagi kamchiliklar**

- o Glikemiyani yetarli darajada nazorat qilmaslik
- o Ovqatlanish bo'yicha tavsiyalarga amal qilmaslik
- o Insulin qabul qilish tartibiga rioya etmaslik

### **Insulin berishning to'xtatilishi**

- o Insulin pompasi bilan bog'liq muammolar

### **Interkurrent kasalliklar**

### **QD1 asoratlarning xavfi**

- Mikrotomir asoratlari
- Makrotomir asoratlari

**QD 1 namoyon bo'lish bosqichining klinik belgilari**

Urgent bo‘lmagan	Urgent
<ul style="list-style-type: none"> <li>• polidipsiya, poliuriya;</li> <li>• enurez;</li> <li>• emizikli bolalarda tana vaznining muntazam kamayishi yoki tushuntirib bo‘lmaydigan tarzda vazn qo‘shmaslik;</li> <li>• takrorlanuvchi teri infeksiyalari;</li> <li>• zaiflik, xolsizlik;</li> <li>• vulvit, balanit.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• og‘ir suvsizlanish (teri va shilliq pardalarning quruqligi, teri tarangligi pasayishi, "botiq ko‘zlar");</li> <li>• takrorlanuvchi qusish;</li> <li>• Kussmaul nafasi - chuqur va shovqinli nafas olish hamda kuchaytirilgan nafas chiqarish bilan kechuvchi bir maromli siyrak nafas;</li> <li>• chiqarilayotgan nafasda atseton hidi bo‘lishi;</li> <li>• ong faoliyatining buzilishi (dezoriyentatsiya, koma oldi yoki koma holati).</li> </ul>

### Laboratoriya diagnostika tekshiruvlari

#### **Tavsiyalar:**

**Qondagi glyukoza miqdorini aniqlash:** Qandli diabet (QD) va/yoki giperglikemiyaning klinik belgilari mavjud bemorlarda laboratoriya sharoitida o‘tkaziladi.

**Qondagi glyukozani qayta tekshirish:** Giperglikemiyasi bor, ammo QD ning klinik belgilari kuzatilmagan bemorlarda tavsiya etiladi.

#### **Tavsiya etilmaydi:**

**Tashxis qo‘yish uchun glyukometrlardan foydalanish:** QD1ni aniqlash uchun yetarli aniqlikka ega emas.

**Belgilar bo‘lmaganda glikemiyaning bir martalik o‘lchashga asoslanib tashxis qo‘yish.** Uzoq muddatli kuzatuv talab etilishi mumkin, jumladan och qoringa, ovqatdan 2 soat o‘tgach glikemiyaning o‘lchash va/yoki glyukozaga tolerantlik sinovi (GTS) o‘tkazish.

#### **Hisobga olinishi kerak bo‘lgan omillar:**

- **Stress holatidagi giperglikemiya:** O‘tkir infeksiya, jarohat, jarrohlik aralashuvi, nafas olish funksiyasining buzilishi va boshqa holatlar fonida vaqtinchalik bo‘lishi mumkin va qayta tekshiruvni talab qiladi.

#### **Glyukozaga tolerantlik sinovini (GTS) o‘tkazish:**

- **GTS o‘tkazish qoidalari:**

- o 3 kun davomida cheklanmagan ovqatlanish va odatdagi jismoniy faoliyatdan so‘ng ertalab o‘tkaziladi.

- o 8-10 soatlik tungi och qolish (faqat suv ichishga ruxsat etiladi).

- o Oxirgi ovqat tarkibida 30-50 g uglevodlar bo‘lishi lozim.

o Glyukoza eritmasi: tana vaznining har kilogrammiga 1,75 g suvsiz glyukoza (75 g dan oshmasligi kerak) 250-300 ml suvda eritiladi va 5 daqiqa ichida ichib tugatiladi.

o Eritma qabul qilingandan 2 soat o'tgach qon namunasi olinadi.

o Glyukoza miqdori qon olinishi bilan aniqlanadi yoki qon namunasi 0-4°C haroratda ishlov berilib/saqlanishi kerak.

• **GTS quyidagi hollarda o'tkazilmaydi:**

o O'tkir kasallik paytida.

o Qondagi glyukoza miqdorini oshiruvchi dori-darmonlarni qisqa muddat qabul qilganda.

**Qo'shimcha tekshiruvlar:**

• **HbA1c darajasini aniqlash:** QD 1 tashxisi uchun qandli diabet klinik belgilari va/yoki giperglikemiyasi bor bemorlarda laboratoriya sharoitida o'tkazilishi tavsiya etiladi.

**HbA1c darajasini aniqlash**

• **Usullar va jihozlar:** NGSP tomonidan tasdiqlangan Diabet nazorati va asoratlari sinovi (DCCT) standartlariga moslashtirilgan bo'lishi shart.

• **Gemoglobin turlari:** HbA1c ko'rsatkichlarining qondagi glyukoza darajasidan sezilarli darajada farq qilishi gemoglobinopatiyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday hollarda HbA1c ni aniqlashning boshqa usulidan foydalanish lozim.

**Alohida shartlar**

• **Eritrotsitlarning umriga ta'sir qiluvchi holatlar:** Temir tanqisligi anemiyasi, o'roqsimon hujayrali anemiya, homiladorlik, gemodializ, yaqinda qon yo'qotish, qon quyish, eritropoetin bilan davolash va shunga o'xshash holatlarda QD1 ni aniqlash uchun faqat qon plazmasidagi glyukoza darajasini o'lchash usulidan foydalanish kerak.

• **Quyidagilar tavsiya etiladi:** och qoringa plazma glyukoza darajasini tekshirish, ixtiyoriy vaqtda plazma glyukoza darajasini o'lchash, qondagi HbA1c miqdorini aniqlash - QD 1 ga shubha qilingan barcha shaxslarga tashxisni aniqlashtirish maqsadida (3S tavsiya darajasi/shkalasi).

• QD 1 ga gumon qilingan shaxslarda qandli diabet tashxisini qo'yish uchun qondagi HbA1c darajasining 6,5% va undan yuqori bo'lishi tavsiya etiladi (3S tavsiya darajasi/shkalasi).

**Keton tanachalarini aniqlash**

**Tavsiya:** Qandli diabet klinik belgilari va/yoki giperglikemiyasi bor bemorlarda siydik yoki qonda keton tanachalarini aniqlash tavsiya etiladi (3S tavsiya darajasi/shkalasi).

**Shoshilinch choralar:** Keton tanachalari miqdori sezilarli darajada ko'payganda, diabetik ketoatsidoz (DKA) rivojlanish xavfi yuqori bo'lgani sababli, bola o'sha kunning o'zida bolalar endokrinologi ko'rigiga yuborilishi lozim.

• **Eslatma:**

1-tur qandli diabet (QD) bilan kasallangan shaxslarda siydikda keton tanachalari miqdori  $\geq 5$  mmol/l aniqlanganda, ularni shifoxonaga yotqizish tavsiya etiladi. Giperglikemiyaning klassik alomatlari

(sutkasiga 3-5 litrgacha chanqash; nafasdan atseton hidi kelishi; terining qichishi; ko'p siydik ajralishi; yaralarning sekin bitishi; furunkulyoz, kandidoz; tana vaznining keskin va sezilarli pasayishi) kuzatilgan bemorlarda o'Ichangan qon plazmasidagi glyukoza darajasi 1-tur QD tashxisini qo'yish uchun yetarli hisoblanadi. Klinik belgilar yaqqol namoyon bo'lmagan hollarda (shubhali vaziyatlarda) qiyosiy tashxis o'tkazish talab

### Differensial tashxis uchun laboratoriya tekshiruvlari

#### • Autoantitanalarni aniqlash

• **Tavsiya etiladi:** Oshqozon osti bezi orolcha hujayralarining antigenlariga qarshi antitanalar, glutamatdekarboksilazaga qarshi autoantitanalar - GAD; tirozinfosfatazaga qarshi autoantitanalar - IA-2; sink tashuvchisi 8 ga qarshi autoantitanalar - ZnT8 ni aniqlash qiyosiy tashxis qo'yish va shubhali holatlarda QD 1 ni tasdiqlash uchun.

• **QD1 tashxisini tasdiqlash:** Bir yoki undan ortiq autoantitananing mavjudligi QD1 tashxisini tasdiqlaydi.

#### • Autoantitanalarning yo'qligi

• **Idiopatik QD 1:** Autoantitanalarning yo'qligi QD1 ni istisno qilmaydi. Qo'shimcha tekshiruv o'tkazish zarur.

### Molekulyar-genetik tekshiruv

#### Ko'rsatmalar:

Oilada autosom-dominant turda nasldan naslga o'tuvchi qandli diabet.

- Qandli diabetning 12 oylikdan avval, ayniqsa hayotning dastlabki 6 oyida namoyon bo'lishi.
- Och qoringa o'rtacha giperglikemiya (5,5-8,5 mmol/l) semizlik va klinik belgilersiz kuzatilishi.
- Bir yildan ortiq davom etgan "asal davri" yoki qandli diabet bir yildan ko'p davom etganda insulinga bo'lgan ehtiyojning g'ayritabiiy darajada pastligi (0,5 birlik/kg/sutkadan kam).
- Karlik, ko'ruv nervi diskining atrofiyasi yoki sindromal shakllar (mitoxondrial kasalliklar) kabi hamroh holatlar.

**QD tashxisi qo'yilgan bemorlarda C-peptidning och qoringa va stimulyatsiyalangan darajasini hamda/yoki qon plazmasidagi insulin miqdorini tekshirish tavsiya etiladi. Bu QD1ni boshqa turdagi qandli diabetdan farqlash va qoldiq insulin sekretsiasini aniqlash uchun zarur hisoblanadi (tavsiya sinfi/shkalasi 3S).**

• **Izoh:** S-peptid proinsulin molekulasidan insulin ajralib chiqish jarayonida teng miqdorda ajraladigan oqsildir. Sekretor faollikka ega bo'lmasa-da, S-peptid insulin sekretsiasining qo'shimcha biologik belgisi hisoblanadi. Sog'lom kishilarda S-peptidning asosiy darajasi 1,1-4,4 ng/ml ni tashkil etadi. 1-tur qandli diabetda S-peptid darajasi pasaygan yoki aniqlanmasligi mumkin, bu esa qandli diabetning boshqa turlari bilan qiyosiy tashxis qo'yishda muhim ahamiyatga ega. Glyukoza yoki standart uglevodli nonushta bilan stimullanganidan so'ng, 1-tur qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda S-peptid darajasi sezilarli darajada ko'tarilmaydi, 2-tur qandli diabetda esa aksincha, sezilarli darajada oshadi.

• Kasallik boshlanganidan 12-14 oy o'tgach, C-peptid/insulin darajasining yuqori bo'lishi QD 1 uchun xos emas, shuningdek, kasallik boshlanganidan 5-yil o'tgach aniqlanadigan C-peptid darajasi ham QD 1 uchun xarakterli emas.

### Boshqa laboratoriya tadqiqotlari

- Qandli diabet 1 tur bilan og‘rigan bemorlarda hamroh yallig‘lanish jarayoni va kamqonlikni istisno qilish yoki tasdiqlash maqsadida yiliga kamida 1 marta umumiy qon tahlili o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu tahlil quyidagilarni o‘z ichiga oladi: gemoglobin, gematokrit, eritrotsitlar miqdori, eritrotsitlarning cho‘kish tezligi, rang ko‘rsatkichi, leykotsitlarning differensial hisobi (leykotsitar formula) (2S tavsiya darajasi/shkalasi).
- QD 1 tur bilan kasallangan bemorlarda buyrak faoliyatini aniqlash uchun yiliga kamida bir marta ko‘ptokchalar filtratsiyasi tezligining hisoblangan qiymatini (KFT) baholash tavsiya etiladi (tavsiya sinfi/shkalasi 2S).
- QD 1 tur tashxisi qo‘yilgan bemorlarda siydik yo‘llari kasalliklarini istisno qilish maqsadida yiliga kamida bir marta umumiy (klinik) siydik tahlilini o‘tkazish tavsiya etiladi (tavsiya sinfi/shkalasi 2S).
- QD 1 tur bilan og‘rigan bemorlarda qalqonsimon bez faoliyatini aniqlash uchun qonda tireotrop gormon darajasini tekshirish tavsiya etiladi (tavsiya sinfi/shkalasi 2V).
  - Qalqonsimon bez faoliyati buzilganda qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazish ko‘rsatilgan: qalqonsimon bezni ultratovush tekshiruvidan o‘tkazish, tireoperoksidazaga qarshi autoantitanachalar darajasini aniqlash.
- QD 1 tur tashxisi qo‘yilgan bemorlarga yurak-qon tomir kasalliklarini aniqlash maqsadida yiliga kamida bir marta tinch holatda elektrokardiogramma (EKG) o‘tkazish tavsiya etiladi (3S tavsiya darajasi/shkalasi).
- QD 1 tur bilan kasallangan bemorlarni to‘r pardadagi diabetik o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida oftalmolog ko‘rigidan o‘tkazish QD boshlangandan so‘ng 5-yil ichida, keyinchalik esa yiliga kamida bir marta amalga oshirilishi tavsiya etiladi (3S tavsiya darajasi/shkalasi).
  - Markaziy va periferik asab tizimi, shuningdek, oyoq tomirlaridagi diabetik o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida qandli diabet boshlanganidan so‘ng 5-yil ichida, keyinchalik esa yiliga kamida bir marta nevropatolog va podiatr ko‘rigidan o‘tish tavsiya etiladi.

#### **4. Bolalarda 1-tip qandli diabetni davolash**

Asosiy tarkibiy qismlar:

- Insulin bilan davolash
- O‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rgatish va uni uy sharoitida amalga oshirish
- To‘g‘ri ovqatlanish
- Jismoniy mashqlar
- Ruhiy qo‘llab-quvvatlash

##### **4.1. Dori-darmonlarsiz davolash usullari.**

###### **4.1.1. Parhez bilan davolash**

###### **Parhez davolash bo‘yicha qisqacha tavsiyalar:**

- Kundalik ratsiondan yengil hazm bo‘ladigan uglevodlarni saqlaydigan mahsulotlar (qand, asal, shirin qandolat mahsulotlari, qiyom, shirin ichimliklar) istisno qilinadi. Sutkalik kaloriya darajasi quyidagilar hisobiga qoplanishi kerak:
  - uglevodlar 55-60%

- oqsillar 15-20%
- yog'lar 20-25%
- To'yingan yog' kislotalari cheklanishi — 10% gacha, to'yingan yog'larni mono va yarim to'yingan yog'larga almashtirish (1:1:1 nisbatida).
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda to'yingan yog'larni iste'mol qilish cheklanmasligi kerak;
- Quyidagi mahsulotlarni hujjatlashtirish (non birliklarini hisoblash) kerak: don, suyuq sut mahsulotlari, ayrim sabzavotlar navlari (kartoshka, makkajo'xori), mevalar.

Parhez QD 1 ni davolashning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va barcha bolalar hamda o'smirlarga tavsiya etiladi.

**QD 1 tur bemorlarda glikemik nazoratni yaxshilash maqsadida prandial insulinni hisobga olgan va individual ovqatlanish rejasini amalga oshirish tavsiya etiladi.**

• Parhez tavsiyalari sog'lom ovqatlanish tamoyillariga asoslanishi, QD nazorati natijalarini yaxshilash va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytirish uchun barcha QD 1 tur bilan og'rigan bolalar, o'smirlar va ularning oilalariga mos kelishi lozim. Ovqatlanish bo'yicha tavsiyalar madaniy, etnik va oilaviy an'analarga moslashtirilishi, shuningdek, bola va oilaning bilish qobiliyati hamda ruhiy-ijtimoiy jihatlarini hisobga olishi kerak. Bemorga muntazam va kutilmagan jismoniy faollikni boshqarish holatlari uchun, hamda musobaqa sport turlarida shaxsiy maqsadlarga erishish uchun ovqatlanish bo'yicha ko'rsatmalar berish zarur.

Parhezni maqsadi bolaning ideal tana vaznini saqlab turish, o'sishi va rivojlanishini optimallashtirish, glikemik nazoratni yaxshilash hamda asor

**1. Kaloriyaliligi va ozuqaviy moddalari:**

**Ovqatning kaloriyaliligi:** Ovqatlanish bolaning o'sishi va rivojlanishi ehtiyojlariga mos kelishi uchun yetarli darajada kaloriyali bo'lishi lozim.

**Ozuqa moddalari:** Barcha zarur makro- va mikroelementlarning yetarli miqdorda qabul qilinishini ta'minlash kerak.

**2. Ortiqcha tana vazni va semizlikning oldini olish:**

**Oilaviy yondashuv:** Tana vaznini kuzatish va nazorat qilish jarayoniga butun oilani jalb etish.

**3. Makroelementlarni taqsimlash:**

**Uglevodlar:** Kunlik energiya ehtiyojining 45-50 foizi.

**Yog'lar:** Kunlik energiya ehtiyojining 35 foizidan kam, shundan to'yingan yog'lar - 10 foizdan kam.

**Oqsillar:** Kunlik energiya ehtiyojining 15-20 foizi.

**Uglevodlarni hisoblash va glikemik indeks**

**1. Uglevodlarni miqdoriy baholash usullari:**

Non birliklarini (NB) hisoblash: 1 NB 10, 12 yoki 15 gramm uglevodga teng.

Ovqatdagi uglevodlar miqdorini to'g'ridan to'g'ri grammlarda hisoblash.

## 2. Glikemik indeks:

**Mahsulotlarning glikemik indeksini hisobga olish:** Oddiy umumiy hisob-kitobga nisbatan glikemik nazoratni yaxshilash imkonini beradi.

**Insulin terapiyasini korreksiya qilish.**

### 1. Prandial insulin dozasini uglevodlar miqdoriga moslashtirish:

**Ovqatlanishdagi egiluvchanlik:** Ovqatlanish va ovqat vaqtiga nisbatan moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi.

**Glikemik nazoratni yaxshilash:** Glikemiya ko'rsatkichlarini va bemorning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

### 2. Tarkibida oqsil va yog'lar ko'p bo'lgan mahsulotlar:

**Insulin dozasini moslash:** Bunday mahsulotlarni iste'mol qilganda prandial insulin dozasini korreksiya qilish zarur.

#### 4.1.2. Jismoniy mashqlar

Muntazam jismoniy mashqlar zarurligi haqidagi tavsiyalar QD1 ni davolashning ajralmas qismi hisoblanadi. Bemorni va uning oilasini glikemiya darajasi, oldindan yuborilgan insulin dozalari, kutilayotgan jismoniy zo'riqish darajasi va davomiyligiga qarab, jismoniy mashqlardan oldin, mashg'ulot vaqtida va undan keyin qanday harakat qilish kerakligi bo'yicha doimiy ravishda o'qitib borish lozim. <https://doi.org/10.1111/pedi.13421>

**QD 1 tur bilan kasallangan bemorlarda glikemik nazorat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida muntazam jismoniy mashqlar bajarish tavsiya etiladi.**

Jismoniy mashqlarning afzalliklari HbA1c ga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan tashqari, tana vaznini nazorat qilish, yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytirish va umumiy ahvolni yaxshilashni o'z ichiga oladi. 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar va o'smirlarga har kuni kamida 60 daqiqa davomida muntazam jismoniy faollik bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Bu faollik (1) o'rtacha darajadan yuqori darajagacha bo'lgan aerobik mashqlarni, (2) mushaklarni mustahkamlovchi mashqlarni va (3) suyak to'qimalarini mustahkamlovchi mashqlarni o'z ichiga olishi lozim. Jismoniy yuklamalarning tavsiya etiladigan darajasi har bir bemor uchun alohida tanlanadi. Proliferativ retinopatiya va diabetik nefropatiyaga chalingan bemorlar qon bosimining sezilarli darajada ko'tarilishiga olib kelmaydigan jismoniy mashqlar turini tanlashlari kerak.

## 4.2. Glikemik nazoratni baholash va maqsadli ko'rsatkichlar

### Glyukoza monitoringi ko'rsatkichlari:

